

**Davlat soliq xizmati organlariga
Yosh mutaxassislarni tanlash
DASTURI**

Mazkur Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2022-yil 4-avgust kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan 61-son videoselektor yig‘ilishi bayoniga muvofiq Davlat soliq qo‘mitasi (keyingi o‘rinlarda – DSQ) tomonidan oliy ta‘lim muassasalari (keyingi o‘rinlarda – OTM)ning bitiruvchi kursida o‘qiyotgan qobiliyatli yoshlarni saralab olish, ularning stajirovkasini tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlarni nazarda tutadi.

Dastur maqsadi – davlat soliq xizmati organlarida xizmat qilish uchun eng munosib kadrlarni tanlash va istiqbolli kadrlarni tayyorlashni tizimli yo‘lga qo‘yish hamda OTM bitiruvchilarini xizmatga jalb qilish samaradorligini oshirishdan iborat.

Dastur vazifalari:

OTMlar hamda davlat soliq xizmati organlari o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

eng salohiyatli va bilimli bitiruvchilarni tanlash;

nomzodlarni DSQda stajirovka o‘tash uchun yo‘naltirish hamda “ustoz-shogird” an‘anasi asosida tajribali ustoz-mentorlarga biriktirish;

stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarni tanlov (suhbat) asosida davlat soliq xizmati organlari xizmatiga ishga qabul qilish.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Dasturda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:

oliy ta‘lim muassasasi – bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta‘minlovchi davlat ta‘lim muassasasi;

bitiruvchi – OTM kunduzgi shaklining bakalavriat bosqichi bitiruv kurs talabalari;

Davlat soliq qo‘mitasida stajirovka o‘tash – yosh mutaxassislarni davlat soliq xizmatiga tayyorlash, kasbiy faoliyat mas‘uliyatini his etish va tajribali mutaxassislarning ish faoliyatini o‘rganish orqali OTMda olgan nazariy bilimlarini amaliy mustahkamlash jarayoni;

maxsus komissiya – stajirovka o‘tash yuzasidan test bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar bilan suhbat o‘tkazadigan, Davlat soliq qo‘mitasi Raisining buyrug‘i asosida tashkil qilingan komissiya;

stajirovka rahbari – DSQdagi stajirovka jarayonini muvofiqlashtirish mas‘uliyati yuklangan rahbar xodim;

ustoz-mentor – stajirovka o‘qiyotgan bitiruvchilarga DSQdagi faoliyatida “ustoz-shogird” an‘anasi asosida zarur tashkiliy ko‘rsatmalar beruvchi, ularni

mehnat muhofazasi qoidalari bilan tanishtiruvchi, amaliy ko‘nikma va malakalarni o‘rgatuvchi, stajirovka davrida talaba egallagan ko‘nikmalarni baholash yuklangan davlat soliq xizmati organida kamida uch yillik tajribaga ega bo‘lgan davlat soliq xizmati organi xizmatchisi;

shaxsiy rivojlanish rejasi – bitiruvchining DSQdagi stajirovkasi davomida o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar muddatlar kesimida aks ettiriladigan hujjat.

2-bob. Tanlov o‘tkazish tartibi

2. “Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi” 1-ilovadagi sxema bo‘yicha tegishli bosqichlarda va belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

3. DSQning rasmiy veb saytida “Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi” bo‘yicha stajirovka tanlovi haqida e‘lon beriladi va targ‘ibot tashviqot ishlari amalga oshiriladi.

4. Nomzodlardan stajirovka tanlovida ishtirok etish uchun arizalar “Elektron soliq xizmatlari” **my.soliq.uz** portali orqali onlayn shaklda qabul qilinadi.

Arizada nomzodning familiyasi, ismi, otasining ismi (pasporti yoki ID-kartasidagi yozuv bilan aynan bir xil bo‘lishi lozim), tahsil olayotgan oliy ta‘lim muassasasi nomi, ta‘lim shakli, ta‘lim tili, kursi, ta‘lim yo‘nalishi (mutaxassisligi), aloqa telefon raqami to‘liq ko‘rsatiladi.

5. Malaka talablariga muvofiq kelgan nomzodlarga saralash bosqichida ishtirok etish uchun arizada ko‘rsatilgan elektron pochta manzili yoki telefon raqami bo‘yicha tegishli xabarnoma (SMS-xabarnoma) yuboriladi.

6. Nomzodlar O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, davlat fuqarolik xizmati va korrupsiyaga qarshi kurash to‘g‘risidagi qonunchilik, davlat tili, axborot texnologiyalari bo‘yicha bilim darajasini aniqlash maqsadida DSQ tomonidan tashkil etiladigan maxsus test sinovidan o‘tkaziladi.

7. Test bosqichi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Fiskal institutning kompyuter xonalarida o‘tkaziladi.

8. Test bosqichidan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar (*71 foizdan yuqori*) DSQda tuzilgan maxsus komissiya tomonidan suhbatdan o‘tkaziladi.

9. Nomzodlar ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq jadval bo‘yicha baholanadi. Baholash natijalariga ko‘ra, sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzodlar DSQga stajirovkaga qabul qilinadi.

3-bob. Stajirovkani tashkil etish qoidalari

10. Stajirovka tanlovlaridan muvaffaqiyatli o‘tgan nomzod bilan 3-ilovaga muvofiq shaklda stajirovka shartnomasi tuziladi.

11. Stajirovka o‘tash muddati va tomonlar majburiyatlari stajirovka shartnomasida belgilanadi.

12. **DSQdagi stajirovka rahbari** stajirovka o‘tayotgan barcha stajyorlarga rahbarlik qiladi.

Uning vazifalari:

DSQning tarkibiy tuzilmalari va bo‘limlari bo‘yicha stajyorlarni taqsimlaydi, DSQning tuzilishi, faoliyat yo‘nalishlari va o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

stajyor bilan stajirovka o‘tash shartnomasi tuzilishini ta‘minlaydi;

stajyorlar bilan tuzilma rahbarlari va yetakchi xodimlarining uchrashuvini tashkil etadi.

13. **Ustoz-mentor** sifatida davlat soliq xizmati organlarida kamida uch yillik tajribaga hamda mehnat jamoasida obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan DSQ xizmatchisi “ustoz-shogird” an‘anasi asosida ko‘pi bilan ikki nafar stajyorga birlashtirilishi mumkin. Uning vazifalari:

stajyorlarga ish faoliyati va texnika xavfsizligi bo‘yicha tushuntirish beradi, shuningdek, DSQning ichki tartib qoidalari va ish rejimining xususiyatlari bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatadi;

stajirovka dasturiga taalluqli materiallardan foydalanish tartib-qoidalarini o‘rgatadi;

stajyor ish kunining belgilangan davomiyligiga va stajyorning shaxsiy ish rejasiga rioya etilishini nazorat qiladi.

14. **Stajyor** DSQda stajirovka o‘tashda:

stajirovka bo‘yicha uslubiy va ko‘rsatma materiallar bilan tanishishi;

stajirovka shartnomasi bilan yuklatilgan huquq va majburiyatlarni amalga oshirishi;

stajyorning shaxsiy ish-rejasida nazarda tutilgan barcha topshiriqlarni belgilangan muddatlarda, to‘liq hajmda va sifatli bajarishi;

stajirovka o‘tash to‘g‘risidagi hisobotni taqdim qilishi;

faoliyatida foydalanishi mumkin bo‘lgan materiallar to‘plamini shakllantirishi;

DSQning ish rejimi, ichki mehnat tartib qoidalari va va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilishi shart.

4-bob. Stajirovkani o‘tash tartibi

15. Stajirovka uch bosqichga bo‘linadi:

tayyorlov;

asosiy;

hisobotlarni topshirish va baholash.

16. Stajirovka tayyorlov bosqichining birinchi kunida DSQdagi stajirovka rahbari tomonidan yig‘ilish o‘tkaziladi. Yig‘ilishda bitiruvchilar stajirovkani o‘tash dasturi bilan tanishadi, uning maqsad va vazifalariga taalluqli ko‘rsatmalar, stajirovkani o‘tash va 4-ilovadagi hisobot shaklini to‘ldirish tartibi haqida xabardor qilinadi.

Shuningdek, DSQning tuzilishi, faoliyat yoʻnalishlari, oʻziga xosligi bilan tanishadi hamda stajirovka rahbari va birlashtirilgan ustoz-mentor bilan birgalikda stajirovkani oʻtash dasturini bajarish boʻyicha 5-ilovaga muvofiq, shaxsiy rivojlanish rejasini tuzadi.

17. Stajirovkaning asosiy bosqichida stajyorlar bevosita stajirovkani oʻtash dasturini bajarish boʻyicha Shaxsiy rivojlanish rejasida koʻrsatib oʻtilgan ishlarni bajaradi.

18. Stajirovka yakunlari boʻyicha hisobotni topshirish soʻnggi bosqich hisoblanadi. Belgilangan tartibdagi hisobot-taqdimot stajirovka rahbari, ustoz-mentor tomonidan baholanib tasdiqlanadi.

19. Stajirovkani muvaffaqiyatli yakunlagan bitiruvchilarga DSQ hamda Yoshlar ishlari agentligi rahbariyati tomonidan imzolangan sertifikatlar taqdim etiladi.

6-bob. Davlat xizmatiga ishga qabul qilish

20. Davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1-iyul sanasiga qadar yosh mutaxassislar (DSQda stajirovka oʻtab, sertifikatga ega boʻlganlar)ni ishga olish uchun vakant boʻlgan shtat birliklarining oʻn foizidan kam boʻlmagan miqdorida lavozimlar roʻyxatini shakllantiradi hamda mazkur roʻyxatni har yili 15-iyul sanasiga qadar Davlat soliq qoʻmitasiga taqdim etadi.

Shuningdek, roʻyxatdagi lavozimlar boʻyicha DSQda stajirovka oʻtab, sertifikatga ega boʻlgan OTM bitiruvchilari uchun davlat soliq xizmati organlariga ishga qabul qilish yuzasidan alohida tanlov eʼlon qiladi.

21. Sertifikatga ega nomzodlar “Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali” dasturiy-apparat kompleksi (vacancy.argos.uz) orqali davlat soliq xizmati organlariga ishga kirish yuzasidan oʻtkaziladigan ochiq tanlovda test sinovlaridan ozod qilinib, Davlat soliq qoʻmitasi Raisining 2021-yil 11-oktabrdagi 512-son buyrugʻi bilan tasdiqlangan “Davlat soliq xizmati organlariga xizmatga qabul qilish tartibi toʻgʻrisida”gi nizom boʻyicha tanlov komissiyasi tomonidan oʻtkaziladigan suhbat asosida ishga qabul qilinadi.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

22. Mazkur Dastur boʻyicha yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

Davlat soliq xizmati organlariga
Yosh mutaxassislarni tanlash
dasturiga 1-ilova

Yosh mutaxassislarni tanlash dasturini amalga oshirish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Chora-tadbirlar	Muddatlar
1-bosqich	Davlat soliq qo'mitasi	Davlat soliq qo'mitasiga stajyorlarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlar (moddiy texnika)ni yaratish	Sentabr
2-bosqich	Davlat soliq qo'mitasi	Rasmiy veb-saytlar, OAV va ijtimoiy tarmoqlarda "Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" bo'yicha tanlov e'lon qilish hamda OTMlarda targ'ibotni tashkil qilish	Oktabr
3-bosqich	Davlat soliq qo'mitasi	"Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi" bo'yicha e'lon qilingan tanlov bo'yicha kelib tushgan hujjatlarni qabul qilish	Oktabr
4-bosqich	Davlat soliq qo'mitasi	Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tayyorlangan test savollari bo'yicha nomzodlarning bilim darajasini aniqlash uchun test sinovidan o'tkazish	Noyabr oyining 1-yarmi
5-bosqich	Davlat soliq qo'mitasi	Test bosqichidan muvaffaqiyatli (71 foizdan yuqori) o'tgan bitiruvchilarni DSQda tashkil etilgan maxsus komissiya tomonidan suhbatdan o'tkazish	Noyabr oyining 2-yarmi
6-bosqich	Davlat soliq qo'mitasi	Suhbatdan muvaffaqiyatli o'tgan nomzodlarni stajirovkaga jalb etish, ustoz-mentor biriktirish, Stajirovka o'tash shartnomasi va Shaxsiy rivojlanish rejasini imzolash	Dekabr

7-bosqich	Davlat soliq qo'mitasi	Ustoz-mentor tomonidan stajyor faoliyatini kuzatib borish asosida uning bilimi, ko'nikmalari va amaliy tajribasi oshishiga ko'maklashish	Dekabr-iyul
8-bosqich	Davlat soliq qo'mitasi	Stajirovka faoliyati yakunlari bo'yicha stajyor taqdimotini baholash va muvaffaqiyatli tamomlagan stajyorlarga sertifikat berish	Iyul
9-bosqich	Davlat soliq qo'mitasi	Sertifikatga ega bitiruvchilar orasidan tanlov (suhbat) asosida ishga qabul qilish	Avgust

Davlat soliq xizmati organlariga
Yosh mutaxassislarni tanlash
dasturiga 2-ilova

**Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi bo'yicha nomzodlar ko'rsatkichlarini baholash
NAMUNAVIY JADVALI**

№	F.I.Sh	Oliy ta'lim muassasasi	Mutaxassislik	Kursi	Reyting bahosi 20 ball	Test 40	Suhbat 30 ball	Chet tili sertifikatiga egallik 10 ball	JAMI
1.	Eshmamatov To'xtasin Shojalil o'g'li	Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Fiskal institut	Soliqlar va soliqqa tortish	4	17.4	25	25	10	77,4
2.				

Izoh:

“Fanlarni baholash” so'nggi semestr natijalariga ko'ra fanlardan olingan baholari 20 balldan foiz olish bilan hisoblanadi.

(masalan, o'rtacha reyting ko'rsatkichi **87 bo'lsa**, $20 \times 0.87 = 17.4$)

Namuna

**Stajirovka o'tash to'g'risida
SHARTNOMA**

Toshkent shahri

202__-yil ___-_____

Davlat soliq qo'mitasi nomidan qo'mita raisi o'rinbosari M.Maxkamov (keyingi o'rinlarda – DSQ deb ataladi) bir tomondan va fuqaro _____ (pasport seriyasi va raqami: _____ tomondan _____ yilda berilgan) (keyingi o'rinlarda “Stajyor” deb ataladi) ikkinchi tomondan, DSQda yosh mutaxassisning stajirovka o'tashiga doir mazkur shartnomani tuzib imzoladilar.

1. “Stajyor” DSQda _____
_____ vazifalarni bajaradi.

2. “Stajyor”ning majburiyatlari:

stajirovka bo'yicha uslubiy va ko'rsatma materiallar bilan tanishish;
stajirovkani tashkil etish va undan o'tish bilan bog'liq tadbirlarda ishtirok etish;
stajirovkadan o'tish dasturida nazarda tutilgan barcha tadbirlarni stajirovka uchun belgilangan muddat ichida, to'liq hajmda va sifatli bajarish;
stajirovka o'tash to'g'risidagi hisobotni taqdim qilish;
faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar to'plamini shakllantirish;
tashkilotning ichki mehnat tartib qoidalari, texnika xavfsizligi va xodimlar faoliyatining tartibini belgilovchi hujjatlarga rioya qilish;
mazkur shartnomaning 1-bandida belgilangan vazifalarni bajarganligi to'g'risida har oy yakuni bo'yicha dalolatnomani taqdim etish.

DSQning ushbu shartnomadan kelib chiqadigan boshqa topshiriqlarini ham bajaradi.

3. “DSQ”ning majburiyatlari:

mazkur shartnoma shartlariga, shuningdek, fuqarolik qonunchilik normalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga rioya qilish;
stajirovka jarayonlarini adolatli va shaffof tarzda tashkil etish;
malakali va tajribali mutaxassislarni orasidan stajyor bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan stajirovka rahbari va ustoz-mentorni tayinlash;
stajyorlar uchun ish joyi va stajirovka davrida foydalanish uchun zarur materiallar (moddiy-texnika vositalari va boshqalar) ajratilishini tashkil etish;
stajyorlarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish.

4. “Stajyor” har oy yakuni bo'yicha keyingi o'ying 5-sanasiga qadar “Ustoz-mentor” tomondan ko'rib chiqilib imzolangan holdagi bajarilgan ishlar hisoboti (dalolatnomasi)ni Inson resurslarini rivojlantirish departamentiga taqdim etadi.

5. Tomonlarning o'zaro kelishuviga ko'ra mazkur shartnoma shartlariga kiritiladigan barcha qo'shimcha va o'zgartirishlar yozma shaklda amalga oshiriladi.

6. Ushbu shartnoma 20__-yil ___-_____dan boshlab kuchga kiradi va 20__-yil ___-_____ga qadar amal qiladi.

7. Mazkur shartnoma taraflarning kelishuviga asosan yoki bir tarafning istagi asosida ikkinchi tarafni kamida 15 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin.

Bunda shartnoma bekor qilingan paytdan boshlab 5 ish kunida taraflar o'rtasida barcha hisob-kitoblar amalga oshiriladi, mazkur shartnoma Ijrochi tomonidan o'z zimmasidagi vazifalarni bajarmaganligi tufayli bekor qilingan hollar bundan mustasno.

**O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq
qo'mitasi**

STAJYOR

Manzili: _____

Pasport ma'lumotlari: _____

Yashash manzili: _____

Davlat soliq qo'mitasi Raisi o'rinbosari
_____ M.Maxkamov

_____ (F.I.Sh)

_____ 202__-yil

_____ 202__-yil

Davlat soliq xizmati organlariga
Yosh mutaxassislarni tanlash
dasturiga 4-ilova

_____ning
“Yosh mutaxassislarni tanlash dasturi” doirasida Davlat soliq
qo‘mitasida stajirovka davomida bajargan ishlari yuzasidan

HISOBOT

T/r	Chora-tadbir nomi	Bajarilgan ish mazmuni
1.		
2.		
3.		
4.		
5.		

Stajyor

(imzo)

(F.I.Sh)

Ustoz-mentor

(imzo)

(F.I.Sh)

Davlat soliq xizmati organlariga
Yosh mutaxassislarni tanlash
dasturiga 5-ilova

Stajorning namunaviy-shaxsiy rivojlanish rejasi

T/r	Ishning nomi	Stajirovkaning oylik rejasi								Bajarilganligi to'g'risida izoh
		1	2	3	4	5	6	7	8	
1.	DSQ tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishish.									
2.	DSQ tarkibidagi birlashtirilgan kompleks va tegishli tuzilma faoliyatini o'rganish, uning tegishli normativ-huquqiy hujjatlari bilan tanishish va ishlash.									
3.	Stajirovka bo'yicha uslubiy va ko'rsatma materiallar bilan tanishish.									
4.	Faoliyatida foydalanishi mumkin bo'lgan materiallar to'plamini shakllantirish.									
5.	DSQ tomonidan amalga oshiriladigan loyiha va tadbirlarda ishtirok etish va ma'lumot qilib borish.									
6.	DSQ tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari ko'rib chiqilishini o'rganish va ular bilan tanishish.									
7.	Statistik va boshqa ma'lumotlarni umumlashtirish asosida tahliliy ma'lumotlar tayyorlash, chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etish.									
8.	Stajirovka davomida to'plangan ma'lumotlar va o'rganilgan ishlar yuzasidan hisobot tayyorlash va stajirovka rahbariga taqdimot qilish.									

Stajyor

(imzo)

(F.I.Sh)

Ustoz-mentor

(imzo)

(F.I.Sh)